

IQTIDORLI YOSHLAR - XALQ IFTIXORI

Tursunova Dilso‘z Abrorovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqtidorli yoshlarning jamiyat rivojidagi o‘rni, ularni aniqlash, qo‘llab-quvvatlash va har tomonlama rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlar tahlil qilinadi. Iqtidorli yoshlar – har bir millatning bebafo boyligi, kelajak taraqqiyotining tayanchi sifatida baholanadi. Shu nuqtai nazardan, ularga e’tibor davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rilmoxda. Maqolada iqtidorli yoshlarning yutuqlari, ularning xalqaro miqyosdagi muvaffaqiyatlari, shuningdek, ularni rag‘batlantirishning samarali mexanizmlari haqida ham fikr yuritiladi. Tahlillar orqali yoshlarning faolligi, tashabbuskorligi va vatanparvarlik tuyg‘ularining yuksalishiga xizmat qiluvchi omillar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Iqtidorli yoshlar, innovatsiya, milliy taraqqiyot, ta’lim, yutuq, rag‘bat, yoshlar siyosati, xalq iftixori, imkoniyatlar, qo‘llab-quvvatlash.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida inson, ayniqsa, yosh avlod turibdi. Zero, bugungi globallashuv davrida mamlakat taraqqiyoti, uning xalqaro maydonagi nufuzi, ilm-fan, texnologiya va madaniyat sohasidagi yutuqlari bevosita yoshlarning bilimiga, salohiyatiga va tashabbuskorligiga bog‘liq. Shu sababli, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga zarur shart-sharoitlar yaratish va ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

“Iqtidorli yoshlar – xalq iftixori” degan tamoyil, bugun yurtimizda amalda o‘z ifodasini topmoqda. Ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning iqtidorini yuzaga chiqarish, ularni fan, san’at, sport, texnika va boshqa sohalarga jalb etish bo‘yicha tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilgan. Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, maxsus dasturlar va tanlovlardan orqali yoshlarning iste’dodi yuksak darajada e’tirof etilmoqda.

Ayni paytda, har bir ota-onasi, ustoz, jamiyat a’zosi iqtidorli yoshlarni kamolga yetkazishda mas’ul ekanini anglash zarur. Chunki bugungi yosh – ertangi ixtirochi, olim, siyosatchi, arbob va xalq iftixoridir. Ularga e’tibor – kelajakka investitsiya bo‘lib

xizmat qiladi. Maqolada iqtidorli yoshlarning jamiyatdagi tutgan o‘rni, ularni tarbiyalashda tutgan muhim jihatlar, davlat siyosatida tutgan o‘rni hamda istiqbolli rejalar atroflicha yoritiladi.

Bugungi kunda iqtidorli yoshlar har qanday jamiyatning intellektual, ilmiy, madaniy va texnologik taraqqiyotining bosh omili sifatida qaralmoqda. O‘zbekiston Respublikasi ham bu borada mustahkam siyosiy asosga ega bo‘lib, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga sharoit yaratish, ta’lim berish va qo‘llab-quvvatlash borasida izchil va tizimli islohotlarni amalga oshirmoqda. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Bugungi yoshlar – ertangi taraqqiyotimiz kafolati” degan tamoyil asosida yoshlar masalasi ustuvor vazifalardan biriga aylangan. Ayniqsa, iqtidorli va tashabbuskor yoshlarni rag‘batlantirish, ularning ilm-fan, innovatsiya, texnologiya, san’at va sport sohalaridagi salohiyatini to‘liq namoyon etishi uchun barcha zarur imkoniyatlar yaratilmoqda.

Yurtimizda yoshlar bilan ishslashning mukammal huquqiy asoslari shakllantirilgan. “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonun, “Yoshlar – kelajagimiz” dasturi, “Ilm-fan – taraqqiyot omili” konsepsiysi va boshqa davlat dasturlari orqali yoshlar, ayniqsa iqtidorli avlod vakillarining salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish uchun zamonaviy sharoitlar barpo etilmoqda. Bu borada Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari, “Temurbeklar maktabi”, “Ijod maktablari”, oliv ta’lim dargohlarida tashkil etilgan ilmiy jamiyatlar, tadqiqot laboratoriyalari iqtidorli yoshlarning qobiliyatlarini erta aniqlash va rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, yoshlarning ilmiy faoliyatini rag‘batlantirish maqsadida o‘tkazilayotgan fan olimpiadalari, ijodiy tanlovlар, grantlar va stipendiyalar tizimi ham samarali yo‘lga qo‘yilgan.

Xususan, fizika, matematika, informatika, biologiya kabi fanlar bo‘yicha xalqaro olimpiadalarda O‘zbekiston yoshlarining g‘oliblikni qo‘lga kiritayotgani ularning bilim va salohiyati yuqoriligini tasdiqlaydi. Bunday natijalar zamirida esa ta’lim sifati, o‘qituvchilarning malakasi, o‘quv dasturlarining zamonaviyligi va albatta, yoshlarning tinimsiz mehnati mujassam. Bugungi iqtidorli yoshlar nafaqat bilimga, balki

innovatsion fikrlashga, zamonaviy texnologiyalarga, global muammolarni hal qilishga, tadqiqot olib borishga intilmoqda. Bu esa ularni kelajakda mamlakat taraqqiyotining yetakchi kuchiga aylantiradi.

Yoshlarning iqtidorini ro‘yobga chiqarishda OAV, ijtimoiy tarmoqlar, mentorlik dasturlari va ota-onalarning ham roli beqiyosdir. Jumladan, ilmiy rahbarlar, ustoz-shogird an’anasi, tarmoq bo‘yicha ustuvor sohalarga ixtisoslashuv orqali iqtidorli yoshlarga ko‘mak berilmoqda. Shuningdek, Prezident tashabbusi bilan yo‘lga qo‘yilgan “Yil talabasi”, “Zulfiya mukofoti”, “Nihol” va “Ilhom” kabi nufuzli mukofotlar orqali yoshlarda mehnatga qiziqish, yutuqqa intilish, vatanparvarlik tuyg‘usi va mas’uliyat hissi kuchaymoqda. Bunday mukofotlar iqtidorning nafaqat tan olinishiga, balki jamiyatda qadrlanishiga olib keladi. Har bir yosh o‘z yurtida e’tibor va ishonchga sazovor bo‘layotganini ko‘rsa, uning ichki imkoniyatlari ham o‘z-o‘zidan ochiladi.

Iqtidorli yoshlarning muvaffaqiyati bu faqat ularning shaxsiy yutug‘i emas, balki xalqning, millatning, davlatning faxru iftixoridir. Zero, bir nafar yoshning xalqaro miqyosdagi g‘alabasi millionlab yurtdoshlar qalbida faxr, g‘urur va umid uyg‘otadi. Shu sababli iqtidorni erta aniqlash, to‘g‘ri yo‘naltirish, uni jamiyat ehtiyojlariga uyg‘unlashtirish bugungi kunning eng muhim masalalaridandir. Ta’lim muassasalari, mahallalar, davlat tashkilotlari, nodavlat sektorlar va jamiyatning barcha bo‘g‘inlari iqtidorli yoshlarni birdek qo‘llab-quvvatlashi lozim. Faqat shundagina “Iqtidorli yoshlar – xalq iftixori” degan ezgu g‘oya amalda o‘z tasdig‘ini topadi.

Iqtidorli yoshlar – har qanday xalqning bebaho boyligi, yurt istiqbolining poydevori, milliy rivojlanish va taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Bugungi tez o‘zgaruvchan, raqobatbardosh dunyoda har bir davlat o‘z salohiyatini ta’minlash, taraqqiyot sari dadil qadamlar tashlash uchun avvalo bilimli, izlanuvchan, tashabbuskor, kreativ fikrlaydigan yosh avlodga tayanadi. Shunday sharoitda O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida ham iqtidorli yoshlar alohida o‘rin egallamoqda. Ularning ilm-fan, texnologiya, san’at, sport, adabiyot,

ijtimoiy faoliyat va boshqa jabhalarda erishayotgan yutuqlari nafaqat o‘zlari uchun, balki butun jamiyat, xalq uchun faxr va g‘urur manbaiga aylangan.

Bugungi kunda mamlakatimizda iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar, yaratilayotgan imkoniyatlar va sharoitlar shubhasiz, kelajakda yurtimizda yangi-yangi ilmiy kashfiyotlar, innovatsion yutuqlar, madaniy-ma’naviy taraqqiyot bosqichlariga erishish uchun zamin yaratadi. Prezident maktablari, ijodiy va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari, ilmiy markazlar, yoshlarni akademiyalari, turli tanlovlari va davlat mukofotlari orqali yoshlarning salohiyati yuzaga chiqarilib, ular jamiyat hayotiga faol qo‘shilmoqda. Ayniqsa, yoshlarni uchun yaratilayotgan ochiq muhit, ishonch, erkin fikrlash, o‘z tashabbusini ilgari surish imkoniyati ularda o‘ziga bo‘lgan ishonchni, ijtimoiy mas’uliyatni, Vatanga bo‘lgan muhabbat va sadoqatni mustahkamlab borayotganini alohida ta’kidlash lozim.

Shuningdek, iqtidorli yoshlarni tarbiyalash va ularning rivojiga ko‘maklashish nafaqat ta’lim tizimining, balki butun jamiyatning, jumladan, oila, mahalla, OAV, nodavlat tashkilotlar va jamoatchilikning umumiyligi mas’uliyatiga aylanishi kerak. Chunki iste’dod – bu tabiat bergen ne’mat, ammo uni ro‘yobga chiqarish, qo‘llab-quvvatlash va yo‘naltirish – bu mehnat, mas’uliyat va fidoyilikni talab qiladigan jarayondir. Har bir iqtidorli yoshning ortida fidoyi ustozlar, mehribon ota-onalar, rag‘batlantiruvchi tizim va e’tiborli jamiyat turadi.

Xulosa qilib aytganda, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash – bu bugunning vazifasi emas, balki kelajak avlod uchun yaratilayotgan poydevor, milliy taraqqiyot strategiyasining eng muhim yo‘nalishidir. Iqtidorli yoshlarga sarmoya kiritish – eng barakali, eng uzoq muddatli, eng foydali investitsiyadir. Zero, bugungi iqtidorli bola – ertangi olim, ixtirochi, shoир, san’atkor, davlat arbobi yoki millat yetakchisidir. Shunday ekan, har bir yosh iste’dod egasining imkoniyatlarini ko‘rish, uni qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish – har birimizning muqaddas burchimizdir. Faqat shunda biz “Iqtidorli yoshlarni – xalq iftixori” degan g‘oyani hayotga to‘liq tatbiq etgan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2016-yil.
3. “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi. – www.lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yoshlarga bag‘ishlangan nutqlari va murojaatnomalari. – www.prezident.uz
5. “2022–2026 yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi”. – www.strategy.uz
6. Toshpo‘latov, A. Yoshlar siyosati: nazariya va amaliyot. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.
7. Qosimova, Z. “Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlashda zamonaviy yondashuvlar” // Pedagogika va psixologiya jurnali. – 2021. – №3. – B. 45–50.
8. To‘rayev, S. “Yoshlarning ijtimoiy faolligi va innovatsion salohiyati” // Ijtimoiy fanlar jurnali. – 2022. – №2. – B. 21–28.
9. Raximov, M. “Ta’lim tizimida iste’dodli yoshlarni aniqlash va rivojlantirish muammolari” // Yosh olim ilmiy to‘plami. – 2023. – №1. – B. 33–38.
10. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi rasmiy sayti – www.yoshlar.gov.uz
11. Ta’lim muassasalarida iqtidorli yoshlar bilan ishslash metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
12. Karimova, N. “Yoshlar va innovatsiya: raqamli dunyoda o‘z o‘rmini topish” // Ilm va taraqqiyot ilmiy-amaliy jurnali. – 2022. – №4. – B. 60–65.
13. UNESCO Youth Development Indicators. – www.unesco.org